

**XORIJIY MANBALARDA MO‘G‘UL ULUSLARI TARIXIGA
OID MALUMOTLAR (MARKO POLO MA‘LUMOTLARI ASOSIDA)
HISTORICAL INFORMATION ON THE MONGOL ULUSES IN
FOREIGN SOURCES (BASED ON MARCO POLO’S ACCOUNTS)
ИСТОРИЧЕСКИЕ СВЕДЕНИЯ О МОНГОЛЬСКИХ УЛУСАХ В
ЗАРУБЕЖНЫХ ИСТОЧНИКАХ (НА ОСНОВЕ ДАННЫХ МАРКО
ПОЛО)**

*Zokirov Zohidjon Toxirjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasida assistenti.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada venetsiyalik mashhur sayyoh Marko Poloning 1298-yilda yozilgan «Marko Polo kitobi» asariga tayanilgan holda mo‘g‘ullar tarixiga oid xorijiy manbalar tahlil qilinadi. Unda muallifning 1271–1295-yillar oralig‘ida Sharq mamlakatlariga amalga oshirgan sayohatlari davomida Xitoy, Mo‘g‘uliston va mo‘g‘ullar hukmronligi ostida bo‘lgan hududlar haqida bergan tarixiy, geografik hamda etnografik ma‘lumotlari yoritilgan. Xususan, mo‘g‘ul davlat boshqaruvi, harbiy tizimi, pochta aloqalari, iqtisodiy hayoti, xalq urf-odatlar va diniy e‘tiqodlariga oid muhim faktlar bayon etilgan. Asarda Chingizxon shaxsi va siyosiy faoliyatiga berilgan tavsiflar, shuningdek, uning avlodlari, xususan, Xubilayxon faoliyatiga oid ma‘lumotlar alohida o‘rin egallaydi. Marko Polo Xitoyda 17 yil davomida yashagan va Xubilayxon xizmatida turli diplomatik hamda ma‘muriy vazifalarni bajarganligi ta‘kidlanadi. Shu bilan birga, u Xitoyning turli hududlariga qilgan sayohatlari orqali o‘z davri uchun noyob bo‘lgan kuzatuvlar asosida mo‘g‘ullar davlatchiligi haqida batafsil ma‘lumotlar bergan.

Kalit so‘zlar: Marko Polo, Mo‘g‘ullar tarixi, Mo‘g‘ul davlatchiligi, Xubilayxon, Chingizxon, Yevropa sayyohlari, Markaziy Osiyo, mo‘g‘ullar pochta tizimi, xorijiy manbalar, etnografik ma‘lumotlar, geografik tasvirlar.

Abstract. This article analyzes foreign sources on the history of the Mongol states based on the famous book *"The Travels of Marco Polo"*, written in 1298 by

the renowned Venetian traveler. It presents historical, geographical, and ethnographic information about China, Mongolia, and the territories under Mongol rule, gathered during Marco Polo's travels from 1271 to 1295. In particular, the article highlights valuable facts regarding the Mongol system of governance, military organization, postal communication, economic life, customs, and religious beliefs. Special attention is given to Marco Polo's descriptions of Genghis Khan and his descendants, especially Kublai Khan, under whose service Polo spent 17 years in China.

The article emphasizes his administrative and diplomatic missions, as well as his detailed observations of various regions, which provide a unique historical insight into the Mongol Empire. Although questions remain about the reliability of some of Polo's accounts and the lack of chronological consistency in his narrative, the geographical and cultural descriptions in the book are considered credible and of high historical value.

Keywords: Marco Polo, History of the Mongols, Mongol statehood, Kublai Khan, Genghis Khan, European travelers, Central Asia, mongol postal system, foreign sources, ethnographic information, geographical descriptions.

Аннотация. В данной статье рассматриваются зарубежные источники по истории монгольских улусов на основе знаменитого произведения «*Книга Марко Поло*», написанного в 1298 году известным венецианским путешественником. В статье представлены исторические, географические и этнографические сведения о Китае, Монголии и территориях, находившихся под властью монголов, собранные Марко Поло во время его путешествий в 1271–1295 годах. Особое внимание уделяется описанию системы управления монголов, их военной организации, почтовой связи, экономической жизни, традиций и религиозных верований.

Особо выделяются описания личности Чингисхана и его потомков, в частности Хубилая, при дворе которого Марко Поло провёл 17 лет. В статье подчёркивается его участие в дипломатических и административных

миссиях, а также уникальность наблюдений, сделанных в различных регионах империи.

В целом, «Книга Марко Поло» рассматривается как важный зарубежный источник по изучению истории, государственного управления, военной и социальной систем монгольских государств, и её научная значимость в статье обоснована на должном уровне.

Ключевые слова: Марко Поло, История монголов, Монгольская государственность, Хубилай-хан, Чингисхан, Европейские путешественники, Центральная Азия, Монгольская почтовая система, Зарубежные источники, Этнографическая информация, Географические описания

Kirish

Mo'g'ullar imperiyasi XIII asrda jahon tarixidagi eng yirik harbiy-siyosiy tuzilmaga aylangan bo'lib, uning tarkibiga Osiyo va Yevropaning keng hududlari kirgan. Bu davrda tashkil etilgan mo'g'ul uluslari turli madaniyatlar, tillar va dinlar kesishgan geosiyosiy makonda shakllangan bo'lib, ularning siyosiy tuzilmasi, boshqaruv tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixshunoslikda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Ayniqsa, ushbu davr haqida xorijiy sayyohlar, elchilar va savdogarlar tomonidan yozilgan asarlar, o'rta asrlar tarixini o'rganishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Shunday muhim manbalardan biri — venetsiyalik sayyoh Marko Poloning 1298 yilda yozilgan mashhur "Sayohatlar kitobi" bo'lib, unda muallif o'zining 1271–1295 yillar mobaynida Sharq mamlakatlariga qilgan safarlari davomida guvoh bo'lgan tarixiy, etnografik va geografik voqealarni bayon etgan. Marko Poloning 17 yil davomida Xubilayxon saroyida xizmat qilgani, mo'g'ullar davlat boshqaruvi tizimida ishtirok etgani va turli diplomatik hamda ma'muriy topshiriqlarni bajargani haqida berilgan ma'lumotlar o'z davri uchun noyob tarixiy guvohlik hisoblanadi. Ushbu maqolada Marko Polo asari asosida mo'g'ul uluslari tarixiga oid xorijiy manbalarni tahlil qilish, ayniqsa Xubilayxon davridagi siyosiy tizim, pochta aloqasi, jamiyat hayoti, urf-odatlar va Marko Poloning kuzatuvlari asosida mo'g'ullar tarixini yoritish maqsad qilingan.

Mazkur tadqiqot, Marko Polo ma'lumotlarining tarixiy ishonchlilik darajasini baholash va ularning zamonaviy tarixshunoslikdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism

Mo'g'ullar tarixiga doir yana bir muhim manbalardan biri, bu venetsiyalik sayyoh Marko Poloning 1298-yilda yozilgan «Marko Polo kitobi»dir. Ushbu kitobda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligi haqidagi shubhalarga qaramay, u paydo bo'lgan paytdan to hozirgi kungacha, Armaniston, Eron, Xitoy, Qozog'iston, Mo'g'uliston, Hindiston geografiyasi, etnografiyasi, tarixi bo'yicha qimmatli bilim manba bo'lib xizmat qilmoqda.¹

Marko Polo, otasi va amakisi hamda venetsiyalik savdogarlar bilan birga 1271-1275 yillarda kemada Kichik Osiyo yarim orolining Janubiy-Sharqiy sohillarga, u yerdan Bog'dod, Basra, Tabriz va Kermonga kelgan, so'ngra Balx, Qashg'or, Xatan, Kampichu (Ganchjou) shaharlari va Gobi cho'lini kesib o'tib Qoraqurumga yetib borgan. Marko Polo Xitoyda 17 yil Xubilayxon xizmatida bo'lgan². «Marko Polo kitobi»dan ma'lum bo'lishicha Marko Polo asosan pochta xizmati (choparlik) va elchilik vazifalarini bajargan. U mamlakatning turli burchaklarini borib ko'rgan, deyarli barcha shaharlarida bo'lgan. 1275 yilda Polo oilasi yetib kelgan birinchi Xitoy shahri Shaja (zamonaviy Dunxuan) edi. Marko Poloning yozishicha, xon undan xursand bo'lib, turli ko'rsatmalar berib, Venetsiyaga qaytishiga ruxsat bermagan, hattoki uni uch yil Yanchjou shahrining gubernatori qilib qo'ygan. Bundan tashqari, Polo oilasi (kitobga ko'ra) xon qo'shinini rivojlantirishda ishtirok etgan va unga qal'alarni qamal qilish paytida katapultlardan foydalanishni o'rgatga. Poloning Xitoydagi hayotining tavsifi kamdan-kam hollarda xronologik tartibda bo'ladi, bu uning sayohatlarining aniq yo'nalishini aniqlashda muammo tug'diradi. Ammo uning tavsifi geografik jihatdan etarlicha aniq, u yo'nalish kunlari bo'yicha asosiy nuqtalar va masofalarga yo'nalish beradi³.

¹ Поло // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. — 3-е изд. — М. : Советская энциклопедия, 1969–1978.

² <https://www.britannica.com/biography/Marco-Polo>

³ <http://dspace.anu.edu.au/bitstream/1885/41883/1/Marcopolo.html>

U Janubiy Xitoy dengizi, Bengaliya qo'ltig'i, Arabiston dengizi va Eron orqali 1295 yili vataniga qaytib borgan. «Marko Polo kitobi» sayohatchining o'zi ko'rgan, bilgan va kuzatgan narsalari asosida yozilgan. Unda boshqa mamlakatlar bilan bir qatorda Mo'g'ulistonning va mo'g'ullar hukmronligi ostida bo'lgan hududdagi mamlakatlarning geografiyasi, etnografiyasi va tarixi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Shuningdek unda xalq an'analari to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning rivoyatlari va ertaklaridan namunalar ham berilgan. Marko Polo 17 yillik musofirlik davrida mo'g'ullar tili va yozuvini puxta o'rgandi, ularning madaniyatidan xabardor bo'ldi. Marko Polo asarida Chingizxonning xon qilib ko'tarilgan sanasi 1187 yil deb ko'rsatilgan⁴. Marko Polo o'z asarida Chingizxon shaxsini juda ulug'laydi, «u juda botir, aqlli va omadli kishi edi», -deb yozadi u. Marko Polo yozishicha, begona yurtlarga sochilib ketgan butun dunyodagi tatarlar uning huzuriga kelib, uni o'zlarining hukmdori deb tan oldilar⁵.

Marko Poloning yozishicha Chingizxon vorislari ichida eng kuchlisi Xubilay (u kitobida Kublay deb yozadi.) bo'lgan. «Barcha imperatorlar va barcha xristian va musulmon podsholari birgalikda Xubilay to'plashi mumkin bo'lgan kuchni to'play olmas edilar»⁶.

«Marko Polo kitobi»ning mo'g'ullar tarixi bo'yicha manba sifatidagi ahamiyatini juda yuqori bo'lib, asarda Marko Polo Ulug'xonning aloqa tizimi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Unga ko'ra Xanbal (Pekin)dan har bir hudud, har bir viloyatga ko'pdan-ko'p yo'llar ketgan bo'lib, bu yo'llarda har 25 milda to'xtash joyi bo'lgan va pochta xizmatchilari uchun alohida uy qurilgan. Ulug'xonning choparlari bir to'xtash joyidan ikkinchisiga kelganlarida otlarini almashtirganlar. Har bir to'xtash joyida 350-400 tagacha otlar pochta xizmatiga tayyor turganlar. Bunday to'xtash joylari kishilar yashamaydigan cho'l hududlarida ham tashkil qilingan. Kitobda ularga ketayotgan vaqtida Ulug'xon tomonidan berilgan payza to'g'risida so'z yuritiladi. Marko Polo yozishicha payzaga ega bo'lish yo'lda ularni hyech kim ushlab olmasligi va hamma yerda

⁴ Минаева.И.П.- Книга Марко Поло. М.: 1955. - С.85.

⁵ Минаева.И.П.- Книга Марко Поло. М.: 1955. - С.85.

⁶ Минаева.И.П.- Книга Марко Поло. М.: 1955. - С.88.

ularga hurmat ko'rsatilishini bildiradi. Marko Polo Xitoyning asosiy qazilma boyliklaridan biri toshko'mir ekanligini alohida qayd etib o'tadi⁷.

Polo Xitoyda yashab turib fors tilini (o'sha davrdagi xalqaro muloqot tili) bilgan, mo'g'ul tilini (bu davrda Xitoy ma'muriyatining tili) o'rgangan, lekin xitoy tilini o'rganishga majbur bo'lmagan. U mo'g'ul ma'muriyati a'zosi sifatida Xitoy jamiyatidan uzoqda yashagan⁸.

Marko Polo davrida bular asosan tuproqdan yasalgan istehkomlar bo'lib, ular uzluksiz devorni anglatmagan, ammo harbiy jihatdan eng zaif hududlar bilan cheklangan. Venetsiyalik uchun bunday istehkomlar unchalik qiziq bo'lmasligi mumkin. Xubilayning yosh Marko Pologa bergan sharafi, uning Yanchjou gubernatori etib tayinlanishi, Frensis Vudning so'zlariga ko'ra, Xitoyda deyarli yigirma yil davomida savdogarlar borligi to'g'risida xitoy yoki mo'g'ul rasmiy yozuvlarining yo'qligi ishonchsiz ko'rinadi. Masalan, Poloning Xitoyda bo'lganiga dalil sifatida 1271-yildagi yagona ma'lumot eslatib o'tiladi, unda Xubilayning yaqin maslahatchisi Pagba Lama o'z kundaligida xon bilan do'stona munosabatda bo'lgan musofirni tilga oladi⁹. lekin u ismini, na millatini, na Xitoyda qolish muddatini ko'rsatmaydi.

1298 yilda Kurzol jangidagi mag'lubiyatdan so'ng, Polo genuyaliklar tomonidan qo'lga olindi va 1299 yil maygacha u erda edi. Uning sayohat hikoyalarini boshqa mahbus Rustiello (Rustiiano) yozib olgan, u ham ritsarlik romanlarini yozgan¹⁰. Ba'zi manbalarga ko'ra, matn venetsiya lahjasida diktatsiya qilingan, boshqalarga ko'ra italyan tilidagi qo'shimchalar bilan qaytgandan keyin Venetsiyada qadimgi frantsuz tilida yozilgan.

Genuya asirligidan ozod bo'lgach, u Venetsiyaga qaytib keldi, turmushga qurdi va uchta qizli bo'ldi. 1324-yilda allaqachon kasal bo'lib qolgan Polo o'z vasiyatini yozgan, unda mo'gu'l xonidan olingan oltin payzani eslatib o'tadi. Xuddi

⁷https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Поло,_Марко&oldid=128139203

⁸ <http://dspace.anu.edu.au/bitstream/1885/41883/1/Marcopolo.html>

⁹ Klafkowski, Piotr. (1977). «History of Buddhism in Mongolia – A Preliminary Survey», p. 28 and note. Buddhist Studies. The Journal of the Department of Buddhist Studies, University of Delhi. May, 1977. Цит. поен: Drogön Chögyal Phagpa

¹⁰ Поло // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. – 3-е изд. – М. Советская энциклопедия, 1969–1978.

shu yili, Marko vafot etdi va San-Lorenzo cherkoviga dafn qilindi. 1596-yilda uning uyi (afsonaga ko'ra, Xitoy yurishidan olib kelgan narsalar saqlanadigan) yonib ketdi. U dafn etilgan cherkov XIX asrda buzib tashlangan.

Xulosa

Marko Poloning "Sayohatlar kitobi" (1298) mo'g'ullar tarixi, ayniqsa Xubilayxon hukmronligi davridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni o'rganishda muhim xorijiy manbalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda keltirilgan ma'lumotlar orqali XIII asrda mo'g'ul davlatchiligining boshqaruv tizimi, pochta aloqalari, harbiy kuchi, xalq urf-odatlar, iqtisodiy va geosiyosiy ahvoli haqida muhim tarixiy tafsilotlarni aniqlash mumkin.

Marko Poloning o'z ko'zlari bilan ko'rgan va bevosita ishtirok etgan voqealarga asoslangan tavsiflari, u yashagan davr manzarasini tasvirlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mo'g'ullar tomonidan yaratilgan ilg'or aloqa tarmog'i, davlat idoralari faoliyati va Marko Poloning davlat xizmatidagi roli, mo'g'ul davlat boshqaruvining zamonaviy tarixiy baholanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, ushbu manba orqali Marko Poloning mo'g'ul jamiyati va ma'muriyati bilan qanday darajada integratsiyalashganini, u o'z davrining qaysi xalqaro tillarini bilganini va qanday missiyalarni bajarganini ham aniqlash mumkin. Albatta, asarda ayrim mubolag'alar yoki faktlar xronologiyasidagi nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa-da, ularning ilmiy tahlili orqali tarixiy haqiqatga yaqin tafsirlar chiqarish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, "Marko Polo kitobi" mo'g'ul uluslari tarixini o'rganishda noyob va ishonchli xorijiy manba bo'lib, u nafaqat tarixiy voqealarni, balki o'rta asrlar Osiyo xalqlari hayoti, madaniyati va xalqaro munosabatlari haqida ham keng qamrovli tasavvur beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Polo, M. (1969–1978). *Большая советская энциклопедия* [Great Soviet Encyclopedia] (3rd ed., Vols. 1–30, Ed. A. M. Prokhorov). Moscow: Soviet Encyclopedia. (in Russian)

2. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (n.d.). Marco Polo. *Encyclopaedia Britannica*. Retrieved September 2025, from <https://www.britannica.com/biography/Marco-Polo>
3. Australian National University. (n.d.). *Marco Polo*. Retrieved September 2025, from <http://dspace.anu.edu.au/bitstream/1885/41883/1/Marcopolo.html>
4. Minaeva, I. P. (1955). *Книга Марко Поло* [The Book of Marco Polo]. Moscow: [Publisher]. p. 85. (in Russian)
5. Wikipedia contributors. (2023, March 12). *Поло, Марко* [Marco Polo]. *Wikipedia*. Retrieved September 2025, from https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Поло,_Марко&oldid=128139203
6. Klafkowski, P. (1977). History of Buddhism in Mongolia – A Preliminary Survey. *Buddhist Studies. The Journal of the Department of Buddhist Studies, University of Delhi*, May 1977, p. 28.
7. Critchley, J. S. (1993). *Marco Polo's Book* (New edition). UK: Variorum. p. 11.
8. Zafarjon o'g'li A. A. ALEKSANDR BYORNS BOSHCHILIGIDAGI INGLIZ EKSPEDITSIYASINI TASHKIL ETILISHI SABABLARI VA O 'RTA OSIYOGA SAYOHATI //Журнал научных исследований и их решений. – 2025. – Т. 4. – №. 02. – С. 164-169.
9. Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o'g'li, & Zokirov Zohidjon Toxirjon o'g'li. (2025). YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOT POYDEVORI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 73(2), 131-140.
10. Weese.D, Devin A. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. – P.: Penn State Press, –1994 p3.
11. Zokirov Z. XORIJIY MANBALARIDA MO 'G 'UL ULUSLARIGA OID MA'LUMOTLAR (PLANO KARPINI, MA'LUMOTLARI ASOSIDA) //Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 27. – С. 45-47.

12. Zokirov Z. MO 'G 'UL IMPERYASINI TASHKIL ETILISHI VA DASTLABKI BOSHQARUV TIZIMI //Наука и инновация. – 2024. – Т. 2. – №. 27. – С. 137-140.

13. Adashaliyev A. Z. XVIII ASR OXIRI XIX ASR 60-YILLARIDA O 'RTA OSIYO XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI VA YEVROPA DAVLATLARI BILAN OLIB BORGAN SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARI //Мировая наука. – 2024. – №. 5 (86). – С. 5-10.

14. Abdumuxtorov Muslimbek Abdullajon o'g'li, & Zokirov Zohidjon Toxirjon o'g'li. (2025). KORRUPSIYA - TARAQQIYOT KUSHANDASI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 73(2), 141-144. <https://scientific-jl.com/new/article/view/6452>